

IX. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2022- yilning yanvar-mart oylarida 1 803 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning soni 49 741 taga yetdi.

2022- yil 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 45 079 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,1 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5 149 tasi (106,7 %) Zangiota, 4 171 tasi (107,7 %) Qibray, 3 267 tasi (106,4 %) Toshkent tumanlari hamda 2 549 tasi (113,1 %) Chirchiq, 2 517 tasi (110,4 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.

Eng katta ulush


Zangiota tumanida	11,4 %
Qibray tumanida	9,3 %
Toshkent tumanida	7,3 %
Chirchiq shahrida	5,7 %
Angren shahrida	5,6 %
O'rta Chirchiq tumanida	5,5 %
Yangiyo'l tumanida	5,4 %

Eng kichik ulush

Bekobod tumanida	2,8 %
Bo'ka tumanida	2,8 %
Nurafshon shahrida	2,8 %
Oqqo'rg'on tumanida	2,7 %
Ohangaron tumanida	2,6 %
Piskent tumanida	2,6 %
Ohangaron shahrida	2,3 %


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da**

- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqalar




2022- yil yanvar-mart oylariga viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 1 803 tani tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 547 taga yoki 23,3 %ga kamaygan.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar
kesimida soni (yanvar-mart oylarida, birlikda)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
yillar kesimida o'sish dinamikasi (yanvar-mart oylarida, %da)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
2022- yil yanvar-mart holatiga (jamiga nisbatan %da)**



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,8 %i), sanoatda (18,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (14,8 %) hamda yashah va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (7,9 %) tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 39,9 %i (2021- yil yanvar-martda 43,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 21 018,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 14,2 %) yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 109,6 % tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 3 927,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur’ati 103,6 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 93,3 %) tashkil qildi;

- 5 010,2 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar hajmining 63,1 %i) o‘zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 104,5 %ni tashkil qildi;

- 2 367,6 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 83,1 %i) bajarildi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,0 %ga ko‘paydi;


- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 %ga ko‘payishi ta’minlandi (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 50,1 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 0,7 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 97,9 %) kamaydi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 68,1 % yoki 6 491,5 mlrd. so‘m (o‘sish 120,7 %) hamda xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 66,7 % yoki 3 681,6 mlrd. so‘mi (o‘sish 108,4 %) shakllantirildi;

- 452,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 23,8 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 894,1 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 43,0 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)
umumiylajmida kichik tadbirdorlik (biznes) ulushining o'zgarishi
(umumiylajmga nisbatan % hisobida)**

■ 01.04.2021- yil ■ 01.04.2022- yil



**Kichik tadbirdorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning
asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	sanoat	qurilish	xizmat	savdo	investitsiya
Viloyat bo'yicha	14,2	83,1	66,7	68,1	63,0
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	37,2	99,5	38,3	25,1	56,8
Olmaliq	1,7	19,5	62,8	85,8	8,7
Angren	18,9	86,8	66,0	50,4	49,3
Bekobod	1,7	96,9	68,1	85,5	17,8
Ohangaron	60,4	100,0	75,5	89,4	90,8
Chirchiq	10,8	86,0	67,8	63,3	64,6
Yangiyo'l	46,8	95,7	83,7	94,8	83,0
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	42,6	100,0	86,1	98,2	89,4
Ohangaron	7,0	98,9	65,9	99,2	90,8
Bekobod	48,6	100,0	76,1	92,7	67,7
Bo'stonliq	17,9	91,2	47,6	69,5	59,3
Bo'ka	35,1	100,0	84,1	87,3	80,7
Zangiota	22,2	100,0	61,5	43,1	55,5
Qibray	15,8	81,6	49,1	86,5	89,6
Quyi Chirchiq	53,3	86,0	61,6	96,4	95,8
Parkent	99,2	100,0	81,2	97,5	68,4
Piskent	31,5	100,0	77,1	90,2	46,7
O'rta Chirchiq	23,9	99,9	63,9	79,5	92,8
Chinoz	39,9	100,0	68,6	70,5	88,1
Yuqori Chirchiq	56,8	95,6	75,4	91,4	79,7
Toshkent	72,2	99,9	85,2	66,3	92,6
Yangiyo'l	34,6	95,7	83,6	89,4	64,0